SURXON VOHASI O‘YINLARI XUSUSIDA MULOHAZALAR

Normuratov Botir Ravshanovich,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
tayanch doktoranti

Rezyume:

Maqola Surxon vohasi xalq an'anaviy o'yinlarining uzoq tarixiy ildizlari, rivojlanishi va bugungi ahamiyatini yoritadi. O'zbek xalq o'yinlari ibtidoiy jamiyatdan boshlab mehnat, hayot tarzi va madaniy meros asosida shakllangan bo'lib, jismoniy, ruhiy va aqliy tarbiyada muhim rol o'ynagan. Surxon vohasi o'yinlari uchta asosiy guruhga ajratiladi: predmet vositasidagi o'yinlar, predmetsiz o'yinlar hamda mukofot tikiladigan musobaqalar. O'yinlar mavsumiy xususiyatga ega bo'lib, dehqonchilik va chorvachilik faoliyatiga xoslangan. Maqola Surxon vohasi aholisining kundalik hayoti, urf-odatlari va e'tiqodlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan milliy o'yinlarning etnologik-tarixiy ahamiyatini ochib beradi.

Resume:

The article highlights the long historical roots, development, and contemporary significance of traditional folk games in the Surkhan Oasis. Uzbek folk games have been formed since primitive society based on labor, lifestyle, and cultural heritage, playing an important role in physical, mental, and intellectual upbringing. The games of the Surkhan Oasis are divided into three main groups: games with objects, games without objects, and competitive games involving stakes or rewards. These games have a seasonal character and are closely adapted to agricultural and livestock activities. The article reveals the ethnological and historical importance of national games that are deeply connected with the daily life, customs, and beliefs of the people of the Surkhan Oasis.

Резюме:

Статья освещает долгую историческую основу, развитие и современное значение традиционных народных игр Сурханской долины. Узбекские народные игры сформировались ещё с первобытного общества на основе труда, образа жизни и культурного наследия, играя важную роль в физическом, духовном и интеллектуальном воспитании. Игры Сурханской долины делятся на три основные группы: игры с использованием предметов, игры без предметов и соревновательные игры с вознаграждением или ставкой. Игры носят сезонный характер и тесно связаны с земледельческой и скотоводческой деятельностью. В статье раскрывается этнологическое и историческое значение национальных игр, которые неразрывно связаны с повседневной жизнью, обычаями и верованиями населения Сурханской долины.

Kirish.

O‘zbek xalqi an’anaviy o‘yinlari uzoq tarixga ega bo‘lib, ibtidoiy jamiyat davridanoq shakllangan. Biz tahlil qilayotgan, qadim davrlardan bugunga qadar jamiyatning sevimli ovunchog‘i bo‘lib kelayotgan o‘yinlar, xalqmiz orasidan yetuk sarkarda, bahodirlarning chiqishi uchun katta xizmat qilgan bo‘lsa, bugungi kunda sog‘lom bolalarni tarbiyalash va kuchli sportchilarni ulg‘aytirishda poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Qadimda ham oila boshliqlari o‘yinlarning ruhiy, jismoniy, aqliy foyda keltiruvchi jihatlarini to‘g‘ri anglab, ularni doim rivojlantirishgan. “…O‘yinlar dastlab mehnat natijasida vujudga kelgan. Natijada ming yillar davomida turli xil ko‘rinishlarda ommalashib, xalq hayotining turli jabhalarida omuxta holda takomillashmoqda…[1]”.

O‘yinlar kishilar hayotining barcha bosqichlarida uchraydi. Ular odamlarning oilaviy, xo‘jalik hamda jamoaviy hayotlarini tartibga solishda xizmat qiladi. Mazkur marosimlar turli davrlarda har xil diniy va siyosiy tazyiqlar ostida shaklan o‘zgargan yoki transformatsiyaga uchragan bo‘lishiga qaramay, hamon ijtimoiy hayotda o‘ziga xos o‘rin egallab kelmoqda.

Surxon vohasi xalq o‘yinlari bilan bog‘liq urf-odat, marosimlariga doir ma’lumotlarni o‘rganishda shu narsa aniqlandiki, o‘yinlarning mavsumiyligi, mazmuni o‘xshash bo‘lsa-da, lekin tashkil etish, o‘yin jarayoni jihatidan farqlar yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Surxon vohasi aholisi an’anaviy o‘yinlarini uchta katta guruhga ajratish mumkin:

1) Predmet vositasida bo‘ladigan o‘yinlar: “ko‘chmoq”, “do‘l”, “oshiq”, “arg‘imchoq”, “tiqmoq”, “ko‘rpa yopti”, “ganosh”, “chillik”, “oq suyak”, “g‘irbaydi” kabilar.

2) Predmet ishtirok etmaydigan o‘yinlar: “quvlashmachoq”, “bekinmachoq”, “chirkali”, “boboltaka”, “oq terakmi-ko‘k terak”, “zim-ziyo” va hokazo.

3) O‘rtada mukofot yoki rag‘bat tikiladigan o‘yinlar: bu o‘yinlarga kurash, ko‘pkari, jumutoq, qimor kabi o‘yinlar kiradi. Bular orasidan e’tiqodiy jihatdan qaralganda, qimor harom sanaladi. Bu o‘yinni o‘ynaganlar uchun foydali jihati mavjud emas. Bu o‘yin oqibatida juda noxush vaziyatlar kuzatilgan. Bu o‘yin turli hududlarda har xil nomlanadi: qimor, trinka, xulus, uchtalik va hokozolar. Xalq orasida mazkur o‘yin hozirga qadar erkaklar tomonidan ko‘p o‘ynalishini hisobga olib, qayd etib o‘tishni lozim deb bildik.

O‘yinlarning xarakterli tomoni, ularning ayrimlari mavsumiylik kasb etadi. Yozda, qishda, bahorda yoki yil davomida o‘ynash mumkin bo‘lgan o‘yinlar mavjud[2].

1 Qoraboyev U. Xalq o‘yinlarining shaklanishi haqida // Etnomadaniyat. –Toshkent, 2003. –B. 67.
2 Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Boysun, Sherobod, Jarqo‘rg‘on, Muzrabot, Denov tumanlari. 2022–2023-y.

Har bir millat bir necha yuz yillar davomida turli milliy o‘yinlarini ijtimoiy taraqqiyot bilan hamnafas tarzda shakllantirib, mukammallashtirib, saralab kelgusi avlodga uzatib kelgan. Bugungi kundagi jismoniy mashq va sport turlarini sinchiklab kuzatib, o‘rganganimizda xalq xarakatli o‘yinlarining tadrijiy rivojlanishi natijasi ekanligiga amin bo‘lamiz. Har bir millatning o‘ziga xos milliy o‘yinlari bor. Bu o‘yinlar xalqning qadimiy odatlari, madaniy hayoti va kundalik turmushiga asoslanib shakllangan. Ular milliy ma’naviyatning muhim qismi hisoblanadi.

Xalq o‘yinlarida etnik tarixning chuqur izlari, jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar, e’tiqod va dunyoqarash unsurlari, axloqiy va go‘zallik me’yorlari o‘z ifodasini topgan. Bu o‘yinlar yurtning o‘ziga xos tabiati, kattalar odamlarining xulq-atvori, mehnat odatlari va tabiat sharoitini yorqin aks ettiradi. Shu sababli, xalq o‘yinlarini millatning axloqiy va estetik taraqqiyoti, madaniy merosi, boshqa xalqlar bilan aloqa yo‘llari nuqtai nazaridan o‘rganish zarur. Zero, bu o‘yinlar xalqning ijodiy faoliyatining yorqin namunasidir.

O‘yinlarni mehnatkash xalq yaratdi va keng ommalashadi. Hozirga qadar o‘zbek xalqi o‘zining tantanalarini katta xalq tomosha-sayillari bilan nishonlaydi. Sayillar vaqtida “Olomon poyga”, “Arqon tortish”, “Kurash”, “Ot ustida ag‘darish”, “Uloq”, “Ko‘pkari”[3] kabi musobaqa, sport va ko‘ngilochar o‘yinlar o‘tkazilgan.

Xalq o‘yinlari ko‘ngil ochar odatlar bilan uyg‘unlashib ketgan. Barcha an’analar kabi urf-odatlar, o‘yinlar ham ma’lum darajada transformatsiyaga uchraydi, qayta tiklanadi. O‘yinlar deganda ko‘proq bolalik davriga e’tibor qaratiladi. Biroq tomosha, ko‘ngilochar bazmlar kattalar orasida ko‘proq kuzatilib, aslida ular ham o‘yin ahamiyatiga ega. O‘yinlar qaysi shaklda, mazmunda, qanday detalga asoslangan bo‘lishidan qat’iy nazar hayotga tayyorgarlik vazifasini ham bajargan.

Surxon vohasida yashovchi aholining asosiy mashg‘uloti dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, bog‘dorchilik bo‘lganligi tufayli “kamon o‘yini”, “uloq va oshiq o‘yinlari”, “quloq cho‘zma”, “tortishmachoq”, “To‘piq o‘yini”, “Xumor”, “To‘rt oshiq”, “Podachi o‘yini”, “Chanta”, “Jumutoq”, “**Beshtosh”, “**Yong‘oq o‘yini”, “Piyoda poyga”, “Eshak ko‘pkari”, “**Handalaki”, “**Qo‘lga urib qochish”, “O‘ymanko‘ch”, “Qorxat”, “oq terakmi-ko‘k terak”, “xola-xola”, “dasta o‘yini”, “par tepish”[4] kabilar keng tarqalganligi aniqlandi. Surxon vohasi qishloqlarida o‘n yetti xil mashq orqali bajariladigan “pichoq o‘yini”, loy bilan o‘ynaladigan “porsin-pars”, “yong‘oq”, “par tepish” kabi o‘yinlar keng tarqalgan.

Surxon vohasining o‘zbek, turkman, tojik millatiga mansub aholisi orasida o‘yinlarning vujudga kelishi, xo‘jalik an’analari bilan uzviy bog‘langanligi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Xususan, “…o‘yinlar xalq turmush tarzi, kasb-hunar, mehnat xarakteriga ko‘ra, dehqonchilik, chorvachilik xo‘jaligi, xalq hunarmandchiligi, bayram va to‘y-tomoshalar bilan bog‘liq o‘yinlarga bo‘linadi. Ayni paytda tabiiy-geografik joylashuviga va to‘rt fasl bahor, yoz, kuz, qishki o‘yinlar alohida guruhlarni tashkil etadi…[5]”, – deydi A. Ashirov.

Masalan, *dehqonchilikka*[6] bilan aloqadorlik vujudga kelgan o‘yinlar *“Sholg‘om tortish”, “Oq terakmi-ko‘k terak”, “Xola-xola”, “Dasta”, “Yong‘oq o‘yini”, “Bo‘g‘irsoq”, “Mehmon-mehmon”, “Danak yashirish”, “Qo‘g‘irchoq”, “Quloq cho‘zma”, “Kurash”* singari o‘yin nomlarida ham aks etgan.

Chorvachilik bilan uzviylikda shakllanib, rivojlanib kelayotgan o‘yinlar deb “Kamon-kamon”, “Eshak mindi”, “Oshiq o‘yini”, “To‘piq o‘yini”, “Par tepish”, “Uloq (ko‘pkari)”, “Ot poygasi”, “Qalliq”, “Oq so‘ngak”[7] va boshqalarni e’tirof qilamiz.

Hunarmandchilik[8] bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan “Loy parsildoq”, “Parsim-pars”, “Pichoq o‘yini”, “O‘n ikki cho‘p o‘yini”, “Arg‘imchoq”, “Sopol o‘yini”, “Cho‘gurmak o‘yini” nomli o‘yinlar doimiy urfda va bugungi kunda ham sevimli o‘yinlardan hisoblanadi.

Bu o‘yinlarning tasnifi shundan dalolat beradiki, biz avval chorvachilik bilan bog‘liq deb hisoblagan uloq (ko‘pkari), ot poygasi va kurash kabi o‘yinlar nafaqat ko‘chmanchi chorvadorlar orasida, balki to‘y, Navro‘z va hosil bayramlarida dehqonchilik hamda hunarmandchilik bilan shug‘ullanuvchi o‘troq aholi orasida ham keng tarqalgan. Natijada, bu o‘yinlar umumxalq xarakteriga ega bo‘lib, jamiyatning barcha qatlamlari – chorvadorlar, dehqonlar va hunarmandlar orasida birdek ommaviylashib, sevimli mashg‘ulotga aylangan.

Surxondaryoning Boysun va Denov tumanlari tog‘li hudud hisoblanadi. U yerlarning bir qancha joylarida tojik-zabonlar istiqomat qiladilar. Aynan shu ikki hududda 35 dan ortiq bolalar va kattalar o‘yinlari borligini kuzatdik. U o‘yin nomlari ham boshqa joylardan farqli ravishda fors-tojikcha atamalar bilan nomlanadi. “Barg koshanak”, “parbozi” (par o‘yini), “qushakbozi” (qum o‘yini), “Xonadaroyak”, “Lappakbozi”, “Tuftaka”, “chimpo‘shak” (chim kiydi), “qumkafanak” (qumda sudralish musobaqasi), “dandon ba qoshiq” (tishda qoshiq ushlab turish) kabi o‘yinlar ajralib turadi. Bu kabi lokal hamda umumiy xarakterga

3 Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Boysun, Sherobod, Jarqo‘rg‘on, Muzrabot, Denov t. 2022–2023-y.
4 Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Boysun tumani Sho‘rob qishlog‘i. 2021-yil.
5 Ashirov A., Qayumov A. Boysun aholisining an’anaviy turmush tarzi: o‘tmishda va bugun // Boysun tarixi va an’analari. – Toshkent, 2005. – B. 97-106.
6 Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Xo‘janqon qishlog‘i, 2021-yil.
7 Dala yozuvlari. Oltisoy tumani, Bodihavo qishlog‘i. 2022-yil.
8 Dala yozuvlari. Sho‘rchi tumani Baxshtepa qishlog‘i. 2022-yil.

ega bo‘lgan o‘yinlarning turlari, o‘ynalish qoidalarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish jarayoniga tadqiqotda alohida ahamiyat berildi[9]. Masalan, chanta o‘yini o‘zbek bolalar o‘ynaydigan nechta yoki jumutoq o‘yiniga juda o‘xshash. *Chanta* – bu o‘yinning ma’nosi “nechta” degani. Tartibi: bir necha kishi bir-biriga qarama-qarshi tomonga o‘tiradi. Biz ularni A va B tomon deb ataymiz. Avval tanga tashlab kim birinchi boshlashi aniqlanadi. Mabodo A tomon birinchi bo‘lib boshlaydigan bo‘lsa, istagan qo‘lini orqaga qayirib, unga o‘zi xohlagan miqdorda danak qo‘yadi. So‘ngra qo‘lini oldinga uzatib, B tomonga “chanta”, ya’ni “nechta” deydi. B tomon uning qo‘lidagi danaklari nechta ekanligini ko‘rmay turib taxminiy aytishi lozim. Deylik, A tomon kaftini musht qilib ichiga 5 ta danak qo‘ydi. Agar B tomon 5 ta deb to‘g‘ri topsa, hamma danaklarni o‘ziga oladi. Agar 3 ta desa o‘sha beshtani to‘ldirishi uchun unga o‘zidagi ikki dona danakni beradi. Mabodo sakkizta deb yuborsa kaftdagi besh dona danakdan tashqari yana uchta qo‘shib berishga majbur bo‘ladi. Ya’ni, bu o‘yinda o‘zi aytgan sondagi danak chiqishi lozim. O‘yin shu tartibda almashib o‘ynaladi. Qo‘llarida danaklari qolmagan kishi o‘yindan chiqadi. Oxirida bir yoki bir necha kishi yutib chiqishi mumkin[10]. Chanta o‘yini bolalarni sezgirlik va topqirlikka o‘rgatadi.

Surxondaryo viloyati Boysun tumani Machay[11] qishlog‘ida *“ganjak”* o‘yini o‘g‘il bolalarning eng sevimli o‘yinlaridan hisoblanadi. Bunda 2 nafardan cheklanmagan miqdorgacha ishtirokchi qatnashishi mumkin. Bolalar uzoq masofada nishon sifatida katta oynasimon, tog‘liklar nutqi bilan aytganda, yalpoq toshni tikka qiladilar. Nishonning orqa tarafidan barcha ishtirokchi qo‘lidagi soqqa toshni ma’lum bir masofaga uloqtiradi. Kimning soqqasi eng uzoq masofada bo‘lsa, o‘sha birinchi bo‘lib nishonni poylaydi. Agar u nishonni yiqita olmasa, keyingi o‘yinchilar galma-gal harakat qilishadi. Mabodo hech kim nishonni yiqita olmasa, unda o‘yin yangi boshlanib, ikkichi safar nishonni yiqitgan odam ikki achko oladi. O‘yin oldidan ma’lum bir marra ya’ni ball kelishib olinadi. Xuddi shu o‘yin Sherobod tumani Poshxurt qishlog‘ida *“gang”* deb nomlanadi. O‘yin qoidalari deyarli bir xil. Bu o‘yin bolalarda o‘ziga ishonchni, merganlik qobiliyatini, chaqqonlik va uddaburonlik kabi sifatlarni shakllantiradi.

Umuman olganda, Surxon vohasidagi bu xalq o‘yinlari juda uzoq o‘tmishdan boshlab mahalliy aholi orasida paydo bo‘lgan va keng yoyilgan. Yillar o‘tgan sari ular ota-bobolardan farzandlarga meros bo‘lib o‘tib, yanada rivojlanib, sayqallangan. Bu o‘yinlarning ildizlari va rivojlanish yo‘li voha xalqining kundalik hayoti, chorvachilik va dehqonchilik odatlari, shuningdek, qadimgi e’tiqodlari bilan chambarchas bog‘liq. Ular asosan to‘y va bayramlarda, xususan Navro‘z sayllarida o‘tkazilib, odamlarning quvonchini, xursandchiligini oshirgan. Shu tariqa o‘yinlar xalq orasida juda ommaviylashib, doimiy va sevimli an’anaga aylangan. Natijada, ular nafaqat o‘yin-kulgi, balki jamiyatni birlashtiruvchi va kayfiyatni ko‘taruvchi muhim vosita bo‘lib qolgan. Mamlakatimizda xalq o‘yinlari an’analari negizida tashkil etilgan federatssiyalar, assotsatsiyalar, jamiyatlar xalqaro maqomni olishi, mustaqillik davrida xalq o‘yinlarining modernizatsiyalashuviga yorqin misol bo‘la oladi. Xalq o‘yinlari va ularga aloqador marosimlarni tarixiy-etnologik jihatdan o‘rganish o‘zbek xalqining madaniy hayoti, dunyoqarashi, odat-urf va ularning paydo bo‘lishi, o‘zgarishi hamda yangi shakllarini to‘laqonli tushunishga yordam beradi. Mustaqillik davrida bu o‘yinlarning yangi zamon talablariga moslashishi va rivojlanishi umumiy insoniy qadriyatlarning hayotdagi ko‘rinishi bo‘ldi. Bu jarayon turli xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni kuchaytirib, ma’naviy birlashuvga xizmat qildi.

9 Dala yozuvlari. Oltinsoy, Sariosiyo, Uzun va Boysun tumanlari. 2019–2023-yillar.
10 Dala yozuvlari, Angor tumani, Zang qishlog‘i, 2023-yil.
11 Dala yozuvi. Boysun tumani O‘rta Machay qishlog‘i. 2022-yil.